

## GOSPITAL TA'LIMDA SIFAT SO'Z TURKUMLARINI O'RGATISH METODIKASI ORQALI O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISH

*Xakimova Nargiza Xasanovna*

*Maktabagcha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'im muassasasi umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim (Ona tili adabiyot fani o'qituvchisi)*

*Sattorova Dilrabo Elmurod qizi*

*Maktabagcha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi "Mehrli maktab" davlat ta'im muassasasi umumiy o'rta ta'limni tashkil etish bo'yicha pedagog xodim (Ona tili adabiyot fani o'qituvchisi)*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10008058>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola gospital ta'limning ona tili darslarini samarali tashkil etish va sifat so'z turkumi mavzusini o'rgatish orqali o'quvchilar nutqini o'stirish xususida fikr yuritadi. O'quvchilarning, eng avvalo, savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qish, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini rivojlantirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rganishda ona tili darsini to'g'ri tashkil eta bilish haqida qarashlar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** *Gospital ta'lim, so'z turkumlari, matn, tasniflash, so'z turkumlar soni, taraqqiyot, sifat, nutq, morfologiya, sintaktik, mashq.*

XXI asrga kelib mafkuraviy siyosat, qarashlar, dunyoqarash kengaydi va bu mamlakatlar o'rtasida asosiy siyosiy jarayonga aylandi. Ta'lim nazorati va ta'lim sifatiga katta e'tibor qaratildi.

Uzoq muddat davolanadigan o'quvchilarni ta'lim olishi uchun tibbiyot muassasasiga yoki uy ta'limiga jalb qilindi. Maqsad esa hali ham o'sha – o'sha, bemor bolalarni ta'limdan, maktabdan uzoqlashtirmagan holda bilim berishdan iborat. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, gospital maktablarda o'qigan o'quvchilarning 85 foizi o'z qiziqishlari va orzulari haqida so'zlab bergan bo'lsa, maktabga qatnamagan bemor bolalarning 10 tadan faqat 2 tasigina kelajak rejalari haqida so'zlab bergan. Mazkur tadqiqot ham gospital ta'lim va gospital maktabning bemor bolalar hayotida naqadar muhimligini ko'rsatib beradi. O'zbekiston hududida hozirgi kunda yagona bo'lgan "Mehrli maktab" deb nomlangan gospital maktab 2022-yil 16-maydan boshlab o'z faoliyatini olib bormoqda. Ushbu maktab bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi ilmiy markazida davolanayotgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi. Umuman olganda, ushbu gospital maktabning devorlari yorqin, kasallikni eslatmaydigan ranglar tanlangan. Maktab atmosferasini bola his qila oladi. Bola bugun qanday dars o'tilishini o'zi tanlashi va shu darsda ko'proq o'zi gapirishi ham muhim hisoblanadi. Darslar 30 minutdan tashkil qilingan. Baholash jarayoni ham mavjud. Maktabga tashrif, albatta shifokor ko'rsatmasi bilan bo'ladi. Shifokor yurishga ruxsat bermagan taqdirda, pedagog zamonaviy texnologiyalari bilan birgalikda bola huzuriga o'zi tashrif buyuradi va muolaja paytida darslar ham o'z vaqtida o'tiladi. Uzoq muddatli davolanish jarayonida bolaning xotirasi bilan bog'liq va avvalgi bilimlari yodidan ko'tarilib qolish holatlari ham uchrab turadi, shunda avvalgi bilimlarini yangi texnologiyalar orqali

ya'ni, qurilmali konstruktorlar, ertak qahramonlari, kompyuterlashtirilgan robototexnika orqali xotiralarini qisman yangilash yoki yangi bilimlar bilan boyitish imkoniyati paydo bo'ladi. Bundan tashqari jamoaviy ishlash orqali esa, yangi do'stlar orttirishlari va fikrlar almashinishlari mumkin bo'ladi. Eng asosiysi bolalarda nutqiy rivojlanish va jamiyatga to'laqonli qaytish hissi ustun bo'ladi.

"Gospital ta'limda sifat so'z turkumlarini o'rgatish metodikasi orqali o'quvchilar nutqini o'stirish" gospital ta'limda ona tili fani o'qituvchilari dasturi uchun tuzilgan bo'lib, u ona tili fani o'qituvchilariga ta'limda sifat so'z turkumlarini o'rgatish metodikasi orqali o'quvchilar nutqini o'stirishning mazmun va mohiyatini ochib beradi

Mana shundan kelib chiqib gospital ta'limda o'quvchilarning ham nazariy, ham amaliy muammolardan biri – nutq madaniyati masalalarini tadqiq etishdir. Nutq madaniyati keyingi yillarda tilshunoslikning mustaqil ilmiy yo'nalishi sifatida shakllandi va rivoj topmoqda. Shu bilan birga, bu sohaning ko'pgina muammolari hali o'zining asosli va chuqur tadqiqini topganicha yo'q. Mana shulardan biri o'zbek nutqi madaniyati va odobining tarixiy ildizlarini aniqlash, tadqiq qilish va ilmiy umumlashtirishdir.

So'zlar lug'aviy ma'nolari morfologik belgilari va gapda bajaradigan sintaktik vazifalariga ko'ra o'zaro farqlanuvchi turli guruhlari tashkil etadi. So'zlarning lug'aviy va grammatik jihatdan farqlanishiga ko'ra bunday guruhlarga bo'linishi so'z turkumlari deyiladi. Shunga ko'ra, so'zlarni turkumlarga ajratishda quyidagi uch muhim belgi asos bo'ladi.

1. So'zlar ifodalaydigan lug'aviy ma'no turkumlarga ajratishdagi muhim belgidir. Masalan, uy, yer, daraxt, kitob, tosh so'zlari borliqdagi predmetlarni anglatadi. Ularning nomi ekanligi bilan xarakterlanadi. Bir qator so'zlar shu predmetlarning biror belgisini: rangini, shakl-ko'rinishini, mazasini, hajm-o'lchamini ifodalaydi: oq, ko'k, katta, yumaloq, keng, uzun kabi. Shuningdek, bir qator so'zlar predmetning ish- harakatini anglatadi: bordi, yozdi, o'qidi, so'zlar ish-harakat yoki belgining belgisini bildiradi: darrov, sekin, oz, ko'p va boshqalar.

So'z ma'nolaridagi mavjud bu xususiyatlar ulami turkumlarga ajratishdagi asosiy belgidir. Turkumlarga ajratishdagi ikkinchi va uchinchi xususiyat so'zning shu ma'no tomoniga bog'liq ravishda yuzaga keladi. So'z turkumlarini ajratishda morfologik belgi ham muhimdir. Bu xususiyat muayyan so'z turkumlarida maxsus qo'shimchalar tizimi mavjudligini, ularni asosan shu turkumga xoslanganini ko'rsatadi. Masalan, ot turkumi ko'plik, kelishik, egalik, shakllariga ega bo'lganidek, boshqa turkumlardan farqli ravishda ularda kichraytish, erkalash shakllari ham bor. Shunga ko'ra otlar ko'plikda keladi, predmetning kimga, nimaga qarashliligini bildiradi, turlanadi. Shuningdek, maxsus ot yasovchi qo'shimchalarning mavjudligi, ot turkumi morfologik jihatdan to'la shakllangan turkum ekanligini ko'rsatadi.

Fe'l turkumida morfologik ko'rsatkichlar boshqacha—zamon, may, nisbat, shaxs-son kabi shakllar fe'lning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Fe'llar tuslanadi, shaxs va sonni ifodalaydi. Maxsus fe'l yasovchi qo'shimchalarning mavjudligi bu turkumdagi so'zlarning ham turkumlanishi uchun to'la shakllanganligini ko'rsatsa fe'lning xoslangan shakllarini hosil qiluvchi qo'shimchalar mavjudligi fe'lning sintaktik vazifasini yana ham kengaytiradi.

So'z turkumlariga ajratishdagi belgilardan biri so'zning gapdagi sintaktik vazifasi bilan bog'liq. Masalan, bosh kelishikdagi ot ega vazifasini bajarsa, qaratqich kelishigidagi ot—aniqlovchi, boshqa kelishikdagi otlar to'ldiruvchi va hokazo vazifalarida keladi. Sintaktik jihatdan biror gap bo'lami vazifasida kelish muayyan so'z turkumi uchun qotib qolgan holat emas.

Chunonchi, sifat gapda aniqlovchi vazifasida keladi. Bu sifatning boshqa sintaktik vazifa bajarmasligini ko'rsatmaydi. Binobarin, sifatlar ham gapda to'ldiruvchi: kattani katta deydilar (Maqol), otlashganda ega: yaxshi yeydi oshini, yomon yeydi boshini (Maqol) vazifalarida qo'llaniladi.

Ko'rinadiki, so'z turkumlarining sintaktik vazifalari shu turkumdagi so'zlarning lug'aviy ma'nosiga mos holda bo'ladi. Xullas, so'z turkumlarini ajratishda shu uch belgigatayaniladi. Biroq bu belgilar barcha so'zlarda bir xil emas. Masalan, ot, fe'l turkumlari uchun bar uchala belgi yetakchi bo'lsa, olmosh va son uchun bu belgilar o'ta past darajada yoki sifat ravishda sintaktik belgi kuchli bo'lganidek, morfologik belgi u darajada emas.

O'zbek tilida so'z turkumlari 12 ta bo'lib ular quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Mustaqil so'zlar.
2. Yordamchi so'zlar.
3. Modal so'zlar.
4. Undov so'zlar.
5. Taqlidiy so'zlar.

So'z turkumlarining barchasi grammatik shaklga ega. biroq lug'aviy, grammatik ma'nosi va vazifasiga ko'ra turlichadir.

### **1. So'z turkumlari ma'no ifodalashiga ko'ra quyidagicha:**

1. *nomlovchi so'zlar: ot, sifat, son, fe'l, ravish.*
2. *ifodalovchi so'zlar: undov, modal so'z, yuklama, taqlidiy so'z.*
3. *ko'rsatuvchi so'zlar: olmosh, bog'lovchi, ko'makchi.*

### **2. Morfologik jihatidan o'zgarishiga ko'ra quyidagicha:**

1. *morfologik jihatdan o'zgaradigan so'zlar : ot, sifat, son, olmosh, fe'l.*
2. *morfologik jihatdan o'zgarmaydigan so'zlar: ravish, bog'lovchi, ko'makchi, yuklama.*

### **3. Gapda sintaktik vazifa bajarishiga ko'ra quyidagicha:**

1. *sintaktik vazifa bajaradigan so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish, taqlidiy so'z.*
2. *sintaktik vazifa bajarmaydigan so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama, undov so'z. Modal so'zlar garchand gap bo'lagi bo'lmasada, gapda kirish, so'z vazifasini bajaradi.*

O'zbek tilida mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish. Lug'aviy ma'noga ega bo'lmagan, so'z va gaplarni o'zaro bog'lash, ularga qo'shimcha ma'no berish uchun ishlatilib, gapda biror gap bo'lagi vazifasida qo'llanilmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar deyiladi. Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi, yuklama kiradi. Yordamchi so'zlar lug'aviy ma'no anglatmaydi. Masalan, uchun, ammo, sayin, bilan, va deganda hech narsani tushunmaymiz. Biroq, til tizimida bu so'zlarning ham o'ziga xos o'rni bor.

Binobarin. ular so'z va gaplarni o'zaro munosabatlarini uyushtiradi (ko'makchi), so'z va gaplarni o'zaro bog'laydi (bog'lovchi), so'zlarga, ba'zan gapga qo'shimcha ma'no

beradi (yuklama). Shunga ko'ra yordamchi so'zlar hani til tizimidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud bo'lgan so'zlardir.

Sifatni o'rganish tizimi mavzuni leksik va grammatik tomondan izchillik bilan boyitib, murakkablashtirib borishni ko'zda tutadi. O'quvchilar sifatga *qanday?*, *qanaqa?* so'rog'ini berib, so'z turkumi sifatida o'rganadi.

Ona tili va adabiyot darslarida o'quvchilar nutqi yangi-yangi sifatlar bilan boyitiladi, ularga oldindan ma'lum bo'lgan sifatning ma'nosiga aniqlik kiritiladi.

Sifatni o'rganish metodikasi uning lingvistik xususiyatlariga asoslanadi. Sifat predmetning belgisi (rangi, hajmi, shakli va ko'rinishi, maza-ta'mi, xarakter- xususiyati, hidi, vazni, o'rin va paytga munosabati)ni bildiradi. Sifatning leksik ma'nosi uni ot bilan bog'liq holda o'rganishni talab qiladi. Sifatni tushunish uchun boshlang'ich sinfdanoq o'quvchilar e'tibori sifatning otga bog'lanishini aniqlashga qaratiladi. O'quvchilar predmetning belgisini aytadilar, ularda so'roq yordamida gapda so'zlarning bog'lanishini aniqlash ko'nikmasi o'stiriladi, ya'ni ular gapdagi sifat va otdan tuzilgan so'z birikmasini ajratadilar (atama aytilmaydi). Keyingi sinflarda bu bog'liqlik aniqlashtiriladi. Shunday qilib, sifatning semantik-grammatik xususiyatlari sifat ustida ishlashni leksik va grammatik (morfologik va sintaktik) yo'nalishda olib borishni talab etadi.

Gospital ta'limning ona tili darslarida „Sifat“ mavzusi quyidagi izchillikda o'rganiladi: 1) sifat bilan dastlabki tanishtirish ; 2) sifat haqida tushuncha berish; 3) shu grammatik mavzu bilan bog'liq holda ayrim sifatning yozilishini o'zlashtirish va hokazo.

Sifat bilan (atamasiz) dastlabki tanishtirish (birinchi bosqich) sifatning leksik ma'nosi va so'roqlari ustida kuzatish o'tkazishdan boshlanadi. Predmetning belgilari xilma-xil bo'lib, uni rangi, mazasi, shakli; xil-xususiyatlari tomonidan tavsiflaydi. Shunday ekan, sifat tushunchasini shakllantirish uchun uning ma'nolarini aniqlash talab etiladi. O'qituvchi predmetni yoki uning rasmini ko'rsatadi, o'quvchilar uning belgilarini aytadilar va yozadilar.

Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi o'rnini puxta o'zlashtirishga erishish uchun ma'nodosh va zid ma'noli sifatlar ustida ishlash, o'qish darslarida sifatning o'z va ko'chma ma'noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o'rganish jarayonida so'z yasashga oid mashqlarni muntazam o'tkazib borish o'quvchilarda u yoki bu so'z turkumini yasash uchun so'z yasovchi qo'shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi. Uchinchi bosqichda sifat haqidagi bilimlarni takomillashtirish, og'zaki va yozma nutqda sifatlardan aniq, o'rinli foydalanish ko'nikmasini o'stirish bilan bog'liq holda *-roq* qo'shimchasi bilan qo'llangan sifatlarini va *ko'm-ko'k*, *yam-yashil* kabi sifatlarini to'g'ri yozish malakasi shakllantiriladi. Tish mazmuni shu vazifalarni bajarishga qarab belgilanadi va o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratiladi.

Nazariy ma'lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarini tanlab qo'yish, gapda sifat bog'langan otni (so'z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so'z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda *-roq* qo'shimchasi bilan qo'llangan *yaxshiroq aqlliroq* kabi, *shuningdek, tip-liniq, sapsariq* kabi sifatlar ko'proq bo'lishiga e'tibor beriladi. O'quvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o'zlashtirishda uni ot bilan o'zaro holda o'rganishga asoslaniladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. „Nutq tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Nutq bo'lmasa, tafakkur ham bo'lmaydi, til materiali bo'lmasa, fikrni ifodalab berib bo'lmaydi“. Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq,

tushunarli, sof, izchil, mantiqiy bo‘lishini ta‘minlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lug‘at sostavini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni o‘stirish uchun shart-sharoit hozirlaydi. Bilimlar, faktlar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini o‘rganishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Nutqdan o‘quvchining fikriy rivojining asosiy o‘lchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. O‘quvchilarning barcha predmetlaridan materialni o‘zlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanishi haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola o‘z nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaratiladi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib bo‘lmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning o‘sishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi. O‘quvchilar nutqini o‘stirishning mashg‘ulotning boshqa turlari bilan bog‘liqligi.

O‘quvchilar nutqini o‘stirish boshqa o‘quv predmetlaridan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog‘lanadi. Ona tili darslarida o‘quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar: ular kuzatishni, o‘ylashni va ko‘rganlari, eshitganlari, o‘qiganlari haqida to‘g‘ri bayon qilishni o‘rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug‘atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to‘g‘ri tuzishni o‘rgatadi.

O‘quvchilar belgi bildirgan so‘zlarning nutqimizdagi ahamiyatini anglashlari uchun sifat ko‘p uchraydigan matn tanlanib, avval sifatlarini tushirib qoldirib, so‘ngra sifatleri bilan o‘qib beriladi va mazmuni taqqoslab ko‘rsatiladi. Predmetni aniq tasvirlash uchun uning belgisini bildiradigan so‘zlardan foydalanilgani tushuntiriladi. Bu darslarda ko‘rgazma vositalar (predmetlar, predmet rasmlari, syujetli rasmlar)dan keng foydalaniladi.

O‘quvchilar qanday?, qanaqa? so‘roqlariga javob bo‘lgan (predmet belgisini bildirgan) so‘zlarni o‘zlashtirishlari uchun mashqning quyidagi turlari samarali hisoblanadi:

- 1) so‘roq yordamida predmetning belgisini bildirgan so‘zlarni tanlash;
- 2) aralash berilgan so‘zlardan gap tuzish;
- 3) matndan kim? yoki nima? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zni va unga bog‘langan qanday? va qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘lgan so‘zni tanlab (so‘z birikmasini topib) aytish va yozish;
- 4) tayanch so‘zlar va rasm asosida gap yoki kichik hikoya tuzish. Ikkinchi bosqichda asosan ikki vazifa: “sifat” tushunchasini shakllantirish hamda o‘quvchilar nutqini yangi sifatlar bilan boyitib borish, fikrni aniq ifodalash uchun mazmunga mos sifatlardan nutqda o‘rinli foydalanish ko‘nikmasini o‘stirish hal qilinadi.

“Sifat” tushunchasini shakllantirish o‘quvchilarning “predmet belgisi” degan umumlashtirilgan kategoriyani o‘zlashtirish darajasiga bevosita bog‘liq. Shu maqsadda rang, maza, shakl-hajm, xilxususiyat bildiradigan so‘zlar guruhlanadi va shu so‘zlarning xususiyatlari umumlashtiriladi. Sifatning leksik ma‘nosi bilan birga uning xarakterli grammatik xususiyatlari ham qayd etiladi.

Sifatlarining xususiyatlarini umumlashtirish asosida o‘quvchilar uning so‘z turkumi sifatidagi o‘ziga xos ko‘rsatkichlarini ajratadilar:

- a) predmet belgisini bildiradi,
- b) qanday? yoki qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘ladi,
- v) gapda otga bog‘lanib, shu ot bilan so‘z birikmasi hosil qiladi, ikkinchi darajali bo‘lak vazifasida keladi. Bu sinfda og‘zaki va yozma ijodiy ishlar (maktab bog‘i yoki

parkka ekskursiya vaqtida kuzatilgan daraxt, qushlar, hayvonlarni tasvirlab kichik hikoya tuzish kabilar)ga katta o‘rin beriladi.

O‘quvchilarning sifatning leksik ma‘nosi haqidagi tushunchalarini chuqurlashtirish va predmetni har tomonlama tasvirlash malakasini o‘stirish uchun:

1) berilgan predmetlarning rangi, mazasi, shakli, xususiyatini ifodalaydigan sifatlar tanlash va yozish: Qanday shaftoli? Shirin, suvli, tuksiz shaftoli. Qanday kitob? Qalin, qizil kitob;

2) berilgan belgilariga qarab qaysi hayvon ekanini aniqlash: Tikanli, kichkina, foydali ... (tipratikan). Ehtiyotkor, ayyor, yovvoyi ... (tulki);

3) predmetlarning belgisiga qarab topishmoqlarning javobini ayting kabi mashqlardan foydalanish mumkin.

Sifatning nutqimizdagi, fikrni aniq va tushunarli ifolashdagi o‘rnini puxta o‘zlashtirishga erishish uchun ma‘nodosh va zid ma‘noli sifatlar ustida ishlash, o‘qish darslarida sifatning o‘z va ko‘chma ma‘noda ishlatilishini kuzatish maqsadga muvofiq. Sifatni o‘rganish jarayonida so‘z yasashga oid mashqlarni muntazam o‘tkazib borish o‘quvchilarda u yoki bu so‘z turkumini yasash uchun so‘z yasovchi qo‘shimchalardan ongli foydalanish malakasini shakllantiradi.

Nazariy ma‘lumotlarga asoslanib: matnda berilgan otlarning belgilarini ifodalaydigan sifatlarni tanlab qo‘yish, gapda sifat bog‘langan otni (so‘z birikmasini) aniqlab yozish; otga mos sifatlar tanlab predmetni tasvirlash, berilgan sifatlar yoki so‘z birikmasi bilan gap tuzish kabi mashqlardan foydalaniladi. Mashq materialini tanlashda -roq qo‘shimchasi bilan qo‘llangan yaxshiroq, aqlliroq kabi, shuningdek, tip-tiniq, sap-sariq kabi sifatlar ko‘proq bo‘lishiga e‘tibor beriladi.

O‘quvchilarning mustaqilligi osha borgan sayin, mashq topshiriqlari ham asta-sekin murakkablashtira boriladi. Shunday qilib, sifatni o‘zlashtirishda uni ot bilan o‘zaro bog‘liq holda o‘rganishga asoslaniladi.

### **Mashqlar tizimi**

• Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga qanday?, qanaqa? so‘roqlarini bering. Bu so‘zlar qanday ma‘no bildirayotganini ayting.

• Ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga so‘roq bering. Ular qanday ma‘noni bildiriyapti?

• Qanday? so‘rog‘i yordamida sifatlarni toping.

• Rang, shakl, maza bildirgan sifatlarni narsa va Shaxs bildirgan so‘zlar bilan birikma tarzida yozing.

• Qanday? so‘rog‘iga javob bo‘lgan sifatlarni toping. Ular kimning yoki nimaning belgisini bildirayotganini ayting.

• Sifatlarga narsa va Shaxs bildirgan so‘zlar orqali so‘roq bering va ularni birikma tarzida yozing.

• Sifatlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birikma tarzida yozing.

• Sifatlarni aniq lab, o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birikma tarzida yozing. Ularning tagiga to‘lqinli chiziq chizing. Ma‘no turini qavs ichida ko‘rsating.

• Chiziqchalar o‘rniga sifatning ma‘no turlaridan mosini qo‘yib yozing.

• Sifatlarni o‘zi bog‘langan so‘zlar bilan birikma tarzida yozing. Ularning gapdagi vazifasini ayting.

• Sifatlarga ma‘nodosh ( shakldosh, qarama-qarshi) ma‘noli sifatlar toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing. Shakldosh so‘zlarning turkumini ayting.

• Rasm asosida “Oltin kuz“ mavzusida hikoyacha tuzing. Hikoyangizda sifatlardan foydalaning. Savatchadagi kubiklarning 6 ta yog‘iga 6 xil surat yopishtirilgan. O‘quvchilar guruhlarining nomidan kelib chiqib, suratlariga mos birikmalar hosil qilishadi. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi taklif etiladi. (5 daqiqa)

**“Xususiyyat bildiruvchi sifatlar “ guruhi (ot, o‘quvchi, soat, ona, daraxt, ko‘ylak)**

Chopog‘on ot . A‘lochi o‘quvchi . Oltin soat. Mehribon ona. Mevali daraxt. Yangi ko‘ylak.

**“Rang-tus bildiruvchi sifatlar” guruhi (olma, qalam, barg, paxta, gul, quyosh)**  
Qizil olma. Qora qalam. Yashil barg. Oq paxta. Pushti gul. Qizg‘ish quyosh

**“Maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar” guruhi (suv, nok, qalampir, olcha, bodring, anor )**

Chuchuk suv. Shirin nok. Achchiq qalampir. Nordon olcha. Sho‘r bodring. Taxir anor

**“Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlar” guruhi (uy, Narvon, yo‘l, bino, bola, ko‘cha)**

Keng uy. Uzun Narvon. Qisqa yo‘l. Baland bino. Kichkina bola. Tor ko‘cha

**“Hid bildiruvchi sifatlar” guruhi (rayhon, botqoq, qo‘ng‘iz, atir, sarimsoq, balchiq)**

Xushbo‘y rayhon. Badbo‘y botqoq. Sassiqlik qo‘ng‘iz. Xushbo‘y atir. Sassiqlik sarimsoq. Badbo‘y balchiq

**“Makon-zamon bildiruvchi sifatlar” guruhi (uy, kiyim, yozuv, mevalar, gullar, olma)**

Qishki uy. Yozgi kiyim. Qadimgi yozuv.. Kuzgi mevalar. Bahorgi gullar. Kechki olma

Xullas, ona tili mashg‘ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og‘zaki, yozma shakllarda to‘g‘ri, ravon ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, til sezgirligini tarbiyalashga xizmat qilmog‘i lozim. Bu ona tili o‘qitishning asosiy maqsadidir.

Ana shu maqsaddan kelib chiqqan holda ona tili fani – o‘zbek tilining fonetikasi, leksikologiyasi va grammatikasi bo‘yicha bu tildan yozma va og‘zaki shakllarda keng va to‘g‘ri foydalanish uchun zarur bo‘lgan ilmiy-amaliy ma‘lumotlarni;

- o‘zbek tili imlosi, talaffuzi, yozma nutqida tinish belgilarini ishlatishning asosiy qoidalarini;

- ona tilining xazinasini bo‘lmish turli xildagi lug‘atlardan keng foydalana olishi;

- o‘z fikrini nutq sharoitiga mos ravishda turli sharoitlarda bayon eta olish vositalarini;

- bir ma‘noni (maqsadni, xabarni) turli shakllarda bera olish yo‘llarini

- ijtimoiy hayot uchun zarur bo‘lgan ish qog‘ozlarini yuritish ko‘nikmalarini;

- yosh va taraqqiyot darajasiga mos bo‘lgan badiiy, ilmiy, ijtimoiy asarlarni o‘rganib, ular haqidagi fikr – mulohazalarni, shaxsiy munosabatni og‘zaki va yozma shakllarda to‘g‘ri bayon eta olish madaniyatini;

- maktabda o‘qitiladigan fanlar, moddiy borliqdagi narsa-buyum, voqea, hodisalar orasidagi bog‘lanishlarni his eta olish va ularni ifodalay olishni;

- moddiy borliqni o‘rganish va uni tafakkur birliklarida ifodalashda, jamiyat a‘zolari o‘rtasida muloqot-robata o‘rnatishda ona tili va boshqa tillarning beqiyos ahamiyatini singdirish uchun zarur bo‘lgan nazariy ma‘lumot va amaliy ishlarni o‘z ichiga qamrab olishi kerak. Nutqning ikkinchi turi yozma nutqdir. Yozma nutqni rivojlantirish og‘zaki nutqqa qaraganda ancha murakkab jarayon sanaladi. Chunki u o‘quvchidan Grammatik va mazmun jihatidan to‘g‘ri jumla qurishni, har bir so‘zni o‘z o‘rnida to‘g‘ri qo‘llashni, fikrni ixcham, izchil, ifodali, uslub jihatidan soda va ravon ifodalashni, bayon qilingan fikrlar

asosida xulosalar chiqarishni talab etadi. Bu nutqning murakkab tabiati yana shundaki, u imlo, tinish belgilari va uslub bilan bog‘li. So‘zni to‘g‘ri yozish, tinish belgilarini o‘rinli qo‘llash, fikrni uslub talabiga muvofiq bayon qilish o‘quvchidan katta mas‘uliyatni talab etadi. Shu sababli nutqning bu turi ancha sekin va murakkab kechadi.

Yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlaridan yana biri uni tekshirish, tuzatish, takomillashtirish mumkinligidir. Bu jihatdan u og‘zaki nutqqa qaraganda ancha qulay imkoniyatlarga ega. O‘quvchi yozma nutqdagi xato va kamchiliklar ustida ishlaydi, ularni bartaraf etadi, keyingi ishlarida bu xato va kamchiliklarga yo‘l qo‘ymaslikka intiladi. Ona tili o‘qituvchisi shuni ham unutmasligi lozimki, ko‘pincha o‘quvchilar yozma ishlarda imlo va tinish belgilariga katta e‘tibor berib, matnning mazmuni ustida etarli ish olib bormaydilar. Matnlarda ko‘pincha mavzuga aloqasi bo‘lmagan fikrlar ustunlik qilib, asosiy fikrlar e‘tibordan chetda qoladi. Shuning uchun ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar diqqati faqat imlo va tinish belgilariga emas, balki bayon qilinayotgan fikrning asosli dalillarga ega bo‘lishi, materialning to‘g‘ri joylashtirilishi, fikrning nutq sharoitiga mos holda to‘g‘ri bayon qilinishiga ham qaratilishi lozim. Ona tili mashg‘ulotlarida shunday holatni vujudga keltirish lozimki, oquvchi yaratgan matnidan qoniqish hosil qilsin. Bu uni o‘z nutqini takomillashtirib borishga ilhomlantiradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san‘at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma‘naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevori // Xalq so‘zi. –Toshkent, 2017. – 4 avgust.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonuni. 2020.
3. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 14 jildlik. 12 jild. Toshkent.
4. M. Yusupov o‘qish va yozuv samaradorligini oshirish.
5. Sh. Rahmatullayev, A. Xojiyev O‘zbek tilining imlo lug‘ati–1995-yil
6. Y. Abdullayev, Sh. Yo‘ldasheva- Yangi alifbo va imlo Toshkent-2000- yil.
7. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
8. [www.savod.o‘rgatish.uz](http://www.savod.o‘rgatish.uz)
9. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)